



## OILADA QIZLARNI TARBIYALASHDA OTALAR ROLINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Xayitboyeva Go'zal Farxod qizi

Ma'mun Universiteti NTM "Psixologiya" ta'lif yo'naliishing 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qizlar ruhiyatini ijobiy shakllantirishda otalar munosabatlar tizimini ahamiyati haqidagi qarashlarga alohida etibor berilgan. Oilada qizlar tarbiyasiga e'tibor berish zarur. Qizlarning kelajakda o'zini shaxs sifatida rivojlanishida otalarning roli muhim ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** oila, tarbiya, ota, munosabat, iroda, ruhiyat, xulq, jamiyat.

**Аннотация:** В данной статье особое внимание уделено взгляду на значение системы отцовских отношений в позитивном формировании психики девочек. Особое внимание уделяется воспитанию девочек в семье. Подчеркнуто, что роль отцов важна в развитии девочек как личности в будущем.

**Ключевое слово:** семья, воспитание, отец, отношение, воля, ментальитет, поведение, общество.

Bugungi kunda jamiyatimizda shakllanayotgan oilalalarda qizlar tarbiyasi va kamolotiga alohida e'tibor berilmoqda. Qiz farzand borliqni ota ruhiyatida ko'radi, qizlar uchun ota suyanuvchi tog', otasiz o'zini erkin hotirjam tutolmaydi. Hayotda o'rnini topishi ham qiyin bo'ladi. Shu sababdan qiz bolaning hayotida otaning roli katta va beqiyosdir. Shu bilan birgalikda uning ruhiy olamini ham to'ldiruvchi eng asosiy obraz ota hisoblanadi.

Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i otaning roliga alohida e'tibor beradi. "Agar oilada - deydi u, oila boshlig'i tajribasiz no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqlibatida undan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin" degan. Jamiyatimizda oiladagi katta masuliyat otalarimizga yuklanadi va har qanday masala bo'yicha undan fikr olib ish yuritadilar.

Qiz bola tarbiyasi o'ta nozik tarbiyadir. Xalqimizda "Onasini ko'r, qizini ol", degan gap bor. Bu gapning zamirida katta ma'no mujassam. Oilada qiz bola onasining yurish-turish munosabati, hunarmandligidan dars oladi, shu xislatni hayotga tadbiq etishga harakat qiladi.

Yoshlikdan qizlarni ozodalikka, shirinsuxanlikka, o'zidan kattalarni doimo hurmat qilib borishga undash va o'rgatish lozim.

Qizlar turmush qiyinchiligiga, ayniqsa, qaynona-kelin munosabatlariga bardosh qilmay turli to'siqlarga duch keladilar. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan naql bor. Onasining munosabati, uy tutishlari qanday bo'lsa, kelgusida bu xislatlar qizlarga o'tadi, uning salbiy yoki ijobiy xislatlariga ega bo'ladi.

Payg'ambar alayhissalom: "Jannat onalar oyog'i ostidadir" deb marhamat qildilar.

Kelgusida qizlar bo'lajak ona, ardoqli uy bekasi bo'ladilar. Biz qizlarimizga hayotning past-balandini, turmush qiyinchilagini yengib o'tishlarini uqtirib o'tishimiz shart. Har bir



ona turmushga chiqayotgan qiziga u kelin bo'lib borayotgan xonadon aziz va qadrli ekanligi, qiz bola kelin bo'lib tushgan xonadoniga toshdek bo'lishini uqtirishi lozimdir.

Onalar o'rtasida qizlar tarbiyasiga oid gap ketsa, ko'pincha "Oq qanddek avaylab, gard yuqtirmay o'stirdim", deyishadi.

Qiz bolaning nomiga ilashgan yomon dog'- isnodning ketishi shunchalik qiyindir. Ba'zida ko'rmayin bosilgan tikan jabrini bir umr tortib yurishga to'g'ri keladi. Ba'zan u kishini umrbod gumon, shubha, demakki, baxti bekamlik emas, baxti kemtiklik qiynog'iga solib qo'yadi. Hammasiga ko'pincha o'ylamay ish qilish, iroda jilovining bir-ikki daqiqaga bo'sh qo'yilishi sabab bo'ladi.

Qiz bola nazokatli, iffatl, iboli, sabrbardoshli, oqila, mehribon bo'lishi kerak. Hattoki, qiz bolaga berilgan nisbat, o'lchov, mezonlar ham o'rtamiyona, yarim, nim-ta'rif, chala nisbat bo'la olmaydi.

Asrlar, zamonlar bu azaliy gaplarning ma'nosini o'chira olmaganidek, tig'ini ham o'tmaslashtira olmaydi. O'zbek xonadoni borki, agar unda qiz o'sayotgan bo'lsa, shu xonadon sohiblarining ko'nglida g'urur, surur, shukur va qiz sha'ni bilan bog'liq or-nomus ham yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham xalqimiz qiz bolaning ma'naviy yetuk, komil inson bo'lib o'sishi uchun alohida ahamiyat beradi. Uni "oq qanddek o'rab, avaylab, gard tekkizmaslikka" harakat qiladi.

Agar farzandlar otasiz voyaga yetishsachi bu savolga buyuk allomalarimiz shunday fikrlari bor "O'g'il otasiz bo'lsa ham bir ish talabiga bora olur o'zin maishatlig tutur. Qiz esa ojiza va bechora bo'lur. Har na boring bo'lsa avvalo burun qizga berg'il va uning asbobin tuzatqil. Tezroq uni bir kishining bo'ynig' band etg'il toki uning g'amidan qutilg'aysan. Agar qizing erga tegmagan bo'lsa , uylanmagan yigitga topshirg'il toki unga ko'ngil bog'lasin va ul bunga ko'ngil bog'lasin".

Bu fikrdan ota o'g'il boladan ko'ra ko'proq qiz bola tarbiyasida ahamiyatli deyishimiz mumkin. Qiz bola hayotida qarama-qarshi jins vakiliga qanday munosabatda bo'lish unga bo'lган fikrlar otasining momula-munosabatiga bog'liq.

O'zbek xalqi farzand tarbiyasiga shu darajada chuqur yondashamizki, farzandlarimiz kichkinaligida ta'lim bilan tarbiyani yonma-yon olib boramiz. Vatanga muhabbat, qadriyatlarimizga hurmat, oilaga sadoqat ruhida tarbiyalaymiz. Farzand tarbiyalanar akan, bunda tashqi muhitning ham roli katta shu bilan birga farzand tarbiyasida ota-onaning ro'li qushning ikki qanotiga qiyoslash mumkin va biz hozircha bitta qanotining yani otaning o'rni xususida so'z yuritamiz. Ota oila boshi, ustuni va suyanadigan inson. Bejizga qachon xotirjam bo'lsan degan savolga "dadamning oyoq kiyimlarini ostonada ko'rganimda" deb javob berilmaydi. Ota faqat moddiy ta'minotchi emas, u oilasi shu jumladan farzandlari uchun jismonan va ma'nан himoyachidir. Ayniqsa, qiz farzandlar hayot va tarbiyasida otaning ro'li muhim. Oilada qiz farzand tug'ilari ekan olamdag'i bor go'zalikni ota ruhiyatida ko'radi va shu ruhiyat orqali ilk hayot tushunchasi shakllana boshlaydi. Agar oila to'liq bo'lmasa, yoki erta ajralishdan qolgan farzandlar uchun o'ta og'ir fofja. Ushbu oilada ulg'ayotgan qiz farzand ruhiyatiga salbiy ta'sirlar namoyon bo'ladi. Bunday hollarda farzand borliqni o'z holicha ko'ralmasligi aggressiv, tajovuzkor bo'lib ,hayotga bo'lgan qiziqliklari so'na boshlaydi, intilishlar yo'qoladi.



Qiz farzand uchun ota bu dunyodagi suyangan tog'i bo'lmasa qiz ruhiyati sinadi. Avvalo farzand oilada ota-onal bilan to'liq baxtli, lekin hayot chig'riqlarri, to'fonlari insonning talab va takliflari bilan hisoblashmaydi. Fojea sabab kemtik qalbli qiz to hayotining so'ngiga qadar o'z armonlri bilan yashashga majbur bo'ladi. Mayli ona farzandlari uchun o'zini o'qa cho'qa ursin, baribir ota o'rnini to'liq bosa olmaydi. Afsuski, bizning jamiyatimizda bunday oilalar yo'q emas. Oqila qiz farzandlar, bunday vaziyatlarda hayotga, tevarak atrofga yanada ziyraklik bilan boqishlari kerak. Tomirlarida oqiyotgan padarining qonini his etgan holda, bu dunyoning sinovlariga mardonavor tura olishlari kerak. Farzandimizga har xil sharoitda yaratib bergen taqdirda ham qizining qalbi kemtik bo'ladi. Bu bo'shliqni har kim har xil to'ldirishlari mumkin. Har doim negativ fikrlar iskanjasida yuradigan kimsalar tasiriga tushib qolishdan ehtiyyot bo'lib, to'g'ri yo'lni tanlay berishi kerak.

Hayotda bo'lgan yorqin qarashlar, ijobiy fikrlar qanday shakllanadi? Menimcha bunday bolalikdan eshitib tinglaydigan ezgulik va yovuzlik aks etgan ertaklar-u dostonlarimizni ta'siri katta. Inson takrorlanmas zot u o'zi hohlagandek yashay olish imkoniyatiga ega. Tashqi noto'g'ri tasirlar to'riga tushib o'z hayotini butunlay izdan chiqarishi mumkin.

Qiz farzand deyilganda ishonuvchan, soddadil, mehrga muhtoj inson ko'z oldimizga keladi. Otadan ololmagan mehrni ko'chadagi bazi insonlardan olishga harakat qiladi va o'zi bilmagan holda hayotini izdan chiqarib keyinchalik erkak kishiga nafrat g'azab qiz bola psixologiyasida, boshqa jinsli vakiliga nisbatan yomon fikr bilan yuradi. Mehr aslida bu narsaga hali hech kim to'yagan, qancha ko'p bo'lsa shuncha kam. Bunday paytda inson ruhiyati iroda kuchi muhim ro'l o'ynaydi. Bola bu paytda o'z ruhiyatidagi bo'shliqni to'ldirish uchun ijobiy narsalardan foydalanadi. Bunda albatta iroda kuchi talab qilinadi.

Qadimgi allomalar asarlarida “ Eng yaxshi sarmoya bu- bilimga bo'lgan sarmoya deganlar. Bu erkin va farovon, tinch osuda yurtimiz o'z-o'zidan bo'lgani yo'q.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, qizlar millat ko'zgusi, kelajak avlodni barkamol va etuk shaxs bo'lib shakllanishida otalarning rolini oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki ota-onalarning oqilonha ta'lim-tarbiyasi orqali farzanlarda o'ziga ishonch va mustaxkam iroda shakllanadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. T.: “Sharq”. 2020.- 688 b.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T.: «Cho'lpon», 2019.-144 b.
3. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. T.: “Sharq”. 2020.- 688 b.
4. U.Kaykovus. Qobusnoma.T.: “O'qituvchi”.2006.-174 b.
5. Akramova F.A. Bilolova Z.B. Jovliyev I.S. Oila ensiklopediyasi.T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2019.-237 b.
6. Андреева Т.В. Семейная психология. – СПб.: Речь, 2004. - 244 с.